

HOFIZLAR MAKTABINI YARATGAN USTOZ SAN'ATKORLAR VA O'ZBEKISTON XALQ HOFIZLARI XAYOTI VA IJODI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19414114>

Tursunov Zoxidjon Abduraimovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada o'zbek milliy musiqasi, ayniqsa, shashmaqom nihoyatda boy va qadimiydir. Oldimizda hali qilishimiz zarur va muqarrar bolgan vazifalar talaygina. Milliy maqomlarimiz, ustoz bastakorlarimiz yaratib ketgan olmas asarlarni o'rganib, hali nota yozuviga tushirilmaganlarini notaga olib, zamonaviy ovoz yozish studiyalarida disklarga muhrlab, o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatib, mumtoz musiqamizni keng ommaga targ'ib etish, kelgusi rejalarimizdan o'rin olgan. Shashmaqom bo'limidagi kuylarning eshituvchilarga to'g'ri etib borishi zarur deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

umuminsoniy qadryatlar, ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi, yuksak-badiiy, mumtoz musiqamiz, xalq hofizlari, san'at dargoxlari, san'at oliygoxlari.

Аннотатсия

В статье говорится, что узбекская национальная музыка, особенно шашмаком, чрезвычайно богата и древняя. Впереди ещё много необходимых и неизбежных дел. В планах на будущее – изучение созданных ими шедевров, нотирование ещё не записанных произведений, запись их на пластинки в современных студиях звукозаписи, обучение подрастающего поколения и популяризация нашей классической музыки среди широкой публики. Подчёркивается, что мелодии в разделе шашмакома должны правильно доходить до слушателей.

Ключевые слова

общечеловеческие ценности, духовно-нравственное воспитание, высокое искусство, классическая музыка, народные часовщики, художественные школы, художественные академии.

Abstract

The article states that Uzbek national music, especially shashmaqam, is extremely rich and ancient. Much necessary and inevitable work remains. Future

plans include studying the masterpieces they created, notating previously unrecorded works, recording them in modern recording studios, educating the younger generation, and popularizing our classical music among the general public. It emphasizes that the melodies in the shashmaqam section must convey the right message to the listener.

Key words

universal human values, spiritual and moral education, high art, classical music, folk watchmakers, art schools, art academies.

Kirish (Adabiyotlar sharhi). Xalqimizning ma'naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g'oyalar, ona-vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, Milliy va umuminsoniy qadryatlar asosida kamol toptirishda milliy musiqa san'atimizning o'rni va ahamiyati beqiyosdir degan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. O'zbek xalqi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan buyon yoshlarimiz va bolalarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyg'usi, vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz ma'naviyati va mazmuniga aylanmoqda.

Jahondagi har bir millatning o'tmish tarixi. O'z ona tili, urf-odati, madaniyati va san'ati bo'lganidek, o'zbek xalqi ham boy tarixga, madaniyatga va musiqa merosiga ega. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar qatorida milliy qadriyatlarning ummoni hisoblanmish madaniyat, san'atga ham katta ahamiyat berilmokda.

Prezidentimiz 2017-yil avgust oyida poytaxtimizdagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyiga tashrifi chog'ida qator masalalar qatorida Shahrisabz shahrida maqom kechalarini tashkil qilish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini yuksaltirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-noyabrdagi «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida»gi qarori qabul qilinib, ijrosiga kirishildi.

Mazkur qarorga ko'ra, 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish rejalashtirilgan. Prezidentimiz Shahrisabz shahriga tashrifi davomida Oqsaroy maydonida mazkur anjumanni o'tkazish uchun zarur madaniy infratuzilma inshootlarini barpo etish

bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ilmiy-ijodiy konseptsiyasi haqida ma'lumot berildi.

Adabiyotlar tahlili. Xalqimiz ardog'idagi san'atkorlar ko'plab etishib chiqqan. 60-70 yillari ommalashib ketgan «Maqom kechalari» ansamblning etuk xonanda va sozandalaridan O'zbekiston Respublikasi san'at arboblari Fahridin Sodiqov, Temur Mahmudov, O'zbekiston xalq artistlari Turg'un Alimatov, Abdulaxad AbduraShidov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Abdurahmon Holtojiev, Abdunabi Ziyoev, Tohirjon Turg'unov kabi sozandalar; O'zbekiston xalq hofizlari Isroil va Ismoil Vahobovlar, Maxmudjon Yo'ldoshev, Beknazar Do'stmurodov, Soyibjon Niyozov, Abdunabi Ibragimov, O'zbekiston xalq artisti Matluba Dadaboeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Komila Bo'rieva SHarofat Tojiboeva xonandalardan Ozoda YOrova, Ozodbek Tillanazarov, To'rabek Muxtorov, Murodjon Norqo'ziev, Qo'chqor Saidov, Ikromjon Matanovlarning Bobur Kenjaev kabi xonandalar nomlarini alohida tilga olish joizdir.

Natijalar va munozara. Shashmaqomni targ'ib qilishda va ijro qilishda musiqa maktablari san'at bilim yurtlari, san'at dargoxlari, san'at oliygoxlari xamda maqom ansambllarida jamoa bo'lib kuylash, jamoa bilan birga hamnafaslikda ishlash metodikasini o'rgatadi. Ansambl jamoasidagi xar bir sozanda va xonandaning etuk mutaxassis ekanligini bilgan xolda ansambl rahbarlarining moxir, serqirra metodist bilim va malakalar majmuini talab qiladi. Bunday talablarga javob bera oladigan ansambl raxbarlarini tayanch (bazaviy) malakaviy tayyorgarligini shakllantirishda, ansambl raxbarini tayyorlashga yo'naltirishda, musiqa oliy o'quv yurtlarining "an'anaviy xonandachilik" ixtisosligi bo'yicha ta'lim jarayonida olgan bilim, ko'nikma va malakaviy darajasi asosiy zamin, poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, ansambl bilan ishlash uslubiyoiti fani mashg'ulotlarida musiqa tinglash, qo'shiq kuylash etakchi faoliyatlar bo'lib, bu jarayonda ansambl raxbarining zimmasida biror cholg'u asbobida o'zi ijro etishi, qo'shiq kuylashi kabi vazifalarini talab doirasida bajarilishi kerak bo'ladi. Tinglash uchun tavsiya etilgan asarlarni badiiy, mahoratli ijrosi tinglovchida kutilgan darajadagi badiiy-emotsional ta'sirchanlikni vujudga keltiradiki, bu darsning sifat va samaradorligini ta'minlanishi eng muhim sharti hisoblanadi. Tanlangan mavzu yuzasidan olib borilgan kuzatuvlar ko'plab musiqa o'qituvchilarining aynan maqom xonandaligi bo'yicha malakaviy tayyorgarliklari talabga javob bermasligini ko'rsatdi. Albatta bu holatning ham tabiiy sabablari mavjud. Bu birinchi navbatda musiqa oliy o'quv yurtlarining "an'anviy xonandachilik" yo'nalishiga kirib o'qiyotgan talabalarning aksariyatini musiqa ta'limi bo'yicha bazaviy (boshlang'ich) ma'lumotga ega emasliklari yoki kasb hunar kollejlari, akademik litseylarni boshqa soha bo'yicha bitirganligi bilan bog'liqdir. O'zbek xalq

musiqa ijodiyoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy - axloqiy shakllantirish mazmuni, shakl va usullari. Shashmaqomi tarixi, ijrochilik an'analari, mahalliy uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, qo'shiq, aytim janrlari, badiiy-ijrochilik an'analari, qo'shiqlarning xilma-xil shakl va harakterdagi rang-barang asarlari, musiqiy cholg'ular hamda ularning tasnifi xususida alohida e'tibor berilgan. Ushbu Bitiruv malakaviy ishida turli janrdagi maqomlar xalq og'zaki ijodi namunalarini tashkil qilish, uni sifatli o'tkazish va buni qanday metodlardan foydalanish, tafakkurni, nutqni o'stirish masalalari ko'riladi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi fikrlarga kichik bir xulosa qilib, shuni qayd etish lozimki, o'zbek milliy musiqasi, ayniqsa, shashmaqom nihoyatda boy va qadimiydir. Oldimizda hali qilishimiz zarur va muqarrar bolgan vazifalar talaygina. Milliy maqomlarimiz, ustoz bastakorlarimiz yaratib ketgan olmas asarlarni o'rganib, hali nota yozuviga tushirilmaganlarini notaga olib, zamonaviy ovoz yozish studiyalarida disklarga muhrlab, o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatib, mumtoz musiqamizni keng ommaga targ'ib etish, kelgusi rejalarimizdan o'rin olgan. Shashmaqom bo'limidagi kuylarning eshituvchilarga to'g'ri etib borishi zarur. Agar maqom yo'llari har tomonlama yuksak-badiiy saviyada ijro etilmasa, shinavandalarga etib bormasligi ham mumkin. Ushbu shashmaqom bo'limidagi kuylar asrlar davomida avloddan-avlodga, ustozdan-shogirtga va nihoyat bus-butun holda bizgacha etib keldi. Bizni uni ko'z-qorachig'imizdek asrab-avaylashimiz kerak. Negaki milliy mumtoz musiqa me'rosimizni unutmoklik buo'zlikni unutmoklik bilan barobardir.

Shashmaqomni targ'ib qilishda va ijro qilishda musiqa maktablari san'at bilim yurtlari, san'at dargoxlari, san'at oliygoxlari xamda maqom ansambllarida jamoa bo'lib kuylash, jamoa bilan birga hamnafaslikda ishlash metodikasini o'rgatadi. Ansambl jamoasidagi xar bir sozanda va xonandaning etuk mutaxassis ekanligini bilgan xolda ansambl rahbarlarining moxir, serqirra metodist bilim va malakalar majmuini talab qiladi. Bunday talablarga javob bera oladigan ansambl raxbarlarini tayanch (bazaviy) malakaviy tayyorgarligini shakllantirishda, ansambl raxbarini tayyorlashga yo'naltirishda, musiqa oliy o'quv yurtlarining "an'anaviy xonandachilik" ixtisosligi bo'yicha ta'lim jarayonida olgan bilim, ko'nikma va malakaviy darajasi asosiy zamin, poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yu. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. I-V tomlar. - T., 1957-1959.
2. M. Yusupov. O'zbek xalq musiqasi (Xorazm aShulalari). - T., 1962.
3. Ye. Romanovskaya. O'zbek xalq qo'Shiqlari. I, II-tomlar. - M., 1939.

- 4.I Rajabov. Maqomlar. – T., 2006.
- 5.O.Matyoqubov. Maqomot. -T., “Musiqi”, 2004.
6. Yunusov R.Y. O‘zbek xalq musiqi ijodi. – Toshkent, 2000.